

MUSTAQILLIK YILLARIDA QO‘QON TARIXI BO‘YICHA YANGICHA KONSEPTUAL QARASHLARNING VUJUDGA KELISHI

Yusupov Axrorjon Qurbonovich

Qo‘qon davlat Universiteti tarix kafedrası v.b.dotsenti

Kalit so‘zlar. Rossiya imperiyasi, harbiy-siyosiy, Qo‘qon xonligi, tarixshunosligi, Mulla Mirzo Olim, ijtimoiy-iqtisodiy, V. Nalivkin, "Tarixi Shohruhiy".

Annotatsiya: Mazkur maqolada Mustaqillik yillarida Qo‘qon tarixi bo‘yicha yangicha konseptual qarashlar Qo‘qon xonligi tarixini maxalliy xonlik tarixi bo‘yicha mutaxasislarning Qo‘qon xonligining o‘zbek davlatchiligi tarixida tutgan o‘rni haqida ichki tashqi siyosati yoritib berilgan.

Ключевые слова. Российская империя, военно-политическая, Кокандское ханство, историография, Мулла Мирзо Алим, социально-экономическая, В. Наливкин, «История Шахрухия».

Аннотация: В статье рассматриваются новые концептуальные взгляды на историю Коканда в годы независимости, роль специалистов по истории Кокандского ханства в истории узбекской государственности, ее внутренней и внешней политике.

Keywords: Russian Empire, military-political, Kokand Khanate, historiography, Mulla Mirzo Olim, socio-economic, V. Nalivkin, "Tarihi Shohruhii".

Abstract: This article covers the history of Kokand during the years of independence, new conceptual views on the history of Kokand, the role of local khanate history specialists in the history of the Kokand Khanate, its internal and external policy.

Qo‘qon xonligi tarixiga oid asarlar ichida eng dastlabkilari 1822 yilda Mirzo Qalandar Mushrif tomonidan yaratilgan "Shohnoma" hamda Hoji Muhammada Hakimxon to‘ra Ho‘qandiy qalamiga mansub "Muntaxab ut-tavorix" asarlaridir. Mahalliy mualliflarning asarlari asosan xonlikning so‘nggi davrlarida yaratilgan. Lekin ulardan Qo‘qon xonligi tashkil topishidan oldingi davrdagi voqealar ham bayon qilingan. Shu asarlar jumlasiga Mulla niyoz Muhammadning "Tarixiy Shohruhiy", Jo‘naid Mullo Avaz Muhammadning "Tarixi jahonnomai", Mulla Mirzo Olimning "Ansob-us salotin va tavorix al-xavoqin" va boshqalarni ko‘rsatish mumkin. Bu asarlar shunisi bilan qimmatliki, mualliflarning ko‘ngilliligi yozilayotgan voqealarning zamondoshlari, hattoki bevosita ishtirokchi guvohlari bo‘lganlar.

Ushbu kitoblarga xos bo‘lgan umumiy tomoni shundaki, ularning aksariyati harbiy voqealarni, xon va beklarning faoliyatini yoritishga

harakat qiladilar. Mualliflarning turli ijtimoiy qatlamlarga mansubliklari sodir bo'lgan voqealarni bayon qilish uslubiga va voqealarga munosabatlariga ta'sir ko'rsatgan. Xonlik tarixshunosligini o'qitishda ana shu jihatlarni hisobga olish zarur. Qo'qon xonligidagi yuqori hukmron tabaqa vakillari orasida madaniyatning aytarli darajada yuksak bo'lmaganligi hamda diniy mutaassiblikning kuchliligi tarixshunoslikning keng ko'lamda rivojlanishiga imkon bermagan. Xozirgacha XVIII asr davomida yaratilgan bironta asar ma'lum emas. Bu davrda ham ayrim mualliflar tarixiy asarlar yaratgan bo'lishlari mumkin, lekin ular bizgacha yetib kelmagan yoki hozirgacha topilmagan bo'lishi mumkin. Farg'ona tarixi bilan jiddiy ravishda qiziqqan, shu masalada qator tadqiqotlar olib borgan V. Nalivkinning quyidagi fikrlariga qo'shilmaslikning iloji yo'q: "Hali hanuz fanning ushbu sohasiga (tarix fani nazarda tutilyapti) sartlar tamomila befarq munosabatda bo'lib kelyaptilar. Ular eng muhim, asosiy fan deb musulmon ilohiyotshunosligini va fiqhni hisoblab kelmoqdalar. Mening qo'limda tarixiy mazmundagi asarlarni ko'rganlarida ularning hayoliga keladigan yagona fikr shundan iboratki, go'yo men bu kitoblarni kadimda qayergadir yashirilga xazinalarni topish uchungina o'qiyotgan ekanman. Bu eng ma'lumotli, o'qimishli hisoblangan sartlarning fikridir" degan[1,6]. Ko'rinib turibdiki mahalliy aholi vakillari tarixiy bo'limlarga ega bo'lishi uchun astoydil harakat kilmaganlar.

Biz misol tariqasida shu kabi asarlarning ayrimlarini ko'rib chiqamiz. Qo'qon xonligi tarixiga oid asarlarning eng dastlabkilaridan biri Muhammad Hakimxon to'ra Huqandiyning "Muntaxab ut-tavorix"dir. Bu tarixchi XVI asrda yashab o'tgan tasavvuf olimi Maxdumi A'zam (Xo'jan Kosoniy) ning avlodi Said Ma'sumxonning o'g'li edi. Ma'sumxonning Qo'qon xoni Norbo'taxonning qiziga uylangan. Ushbu nikohdan hijriy 1221, milodiy 1806-1807 yillarda Hakimxon to'ra tavallud topgan. Ma'sumxon to'ra Norbo'taxonning o'g'illari Olimxon (1799-1810 yy) va Umarxon (1810-1822 yy) davrida yuksak davlat lavozimi Shayxul-islom hamda davlat maslahatchisi lavozimlarida bo'lgan.

"Muntaxab ut-tavorix" avtobiografik xarakterdagi asardir. Asarda Shayboniylar hukmronligi o'rnatilganidan to Mang'itlar sulolasi hokimiyatga kelgunigacha bo'lgan voqealar bayon qilingach Qo'qon xonligining 1843 yilgacha bo'lgan tarixining yuz yillik davri bayon qilingan. Asarning shu qismi uning eng qimmatli bobi hisoblanadi. Asardagi bir qator kamchiliklarni hisobga olmaganda ushbu asar juda boy daliliy materialga ega. Bunda Qo'qon xonligining Buxoro va Qoshg'ar bilan munosabatlari ancha batafsil bayon qilingan. U asar xon davrida Qo'qonning Xorazm va Turkiya bilan aloqalarini aks ettiruvchi bir qator ma'lumotlar ham asarda bayon qilingan.

Asarning qimmatli jihatlaridan biri unda Rossiyaning sharqiy gubernyalari, Turkiya va Iroqning XIX asrning 1-yarmidagi tarixiga oid materiallarining ham

mavjudligidadir. Unda Rossiyaning Orenburg, Samara, Astraxan, Irbit shaharlari, ularning aholisi, savdo aloqalari va bu aloqalarda O'rta Osiyoliklarining ishtiroki, rus qo'shini, shahar boshqaruv muassasalari, Rossiya madaniyatining yuksak darajasi to'g'risida ham ma'lumotlar keltirilgan.

Hakimxon to'ra asaridan foydalanilganda undagi Madalixon hukmronligi davriga bag'ishlangan boblariga alohida diqqat bilan qarash lozimki, zero ular o'rtasidagi dushmanlik asarda o'z ifodasini topgan. Ushbu kitobni bunchalik batafsil tahlil qilishimizning boisi shuki, ushbu asardagi ma'lumotlardan keyingi davr mualliflari keng miqyosda foydalanganlar. Buni yaxshi anglamay turib referatimizda bayon qilinayotgan voqealar, hodisalar mohiyatini tushunishimiz juda mushkuldir.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytadigan bo'lsak, xonlik tarixiga oid mahalliy tarixchilar asarlariga o'ta ehtiyotkorlik bilan tanqidiy munosabatda bo'lish har bir o'quvchi tadqiqotchidan talab qilinadi.

Qo'qon xonligi tarixiga oid yana bir asar Mulla Niyoz Muhammadning "Tarixi Shohruhiy" asaridir. Muallif fikricha uning avlodlari xonlarning yaqin, xizmatchilari bo'lishgan va xonlar uchun janglarda jonlarini fido qilganlar. Mulla Niyoz Muhammadning o'zi o'z davrning eng ma'lumotli kishilaridan biri edi. 1876 yili Qo'qonga kelgan N.N.Pantusov Mulla Niyoz Muhammad bilan tanishadi va u haqida shunday fikrlarni bildiradi: "Tarixi Shohruhiy"ning muallifi hayotligidan foydalanib, mahalliy olimlar, o'lkashunoslar uning bilimlaridan bahramand bo'lib qolishlari lozim [2,8].

Sheralixon o'tmishdan to Xudoyorxon hukmronligining oxirigacha yuz bergan voqealarning deyarli barchasida Niyoz Muhammadning o'zi bevosita ishtirok qilgan. Misol uchun u Sheralixonning Sirdaryo bo'yida qipchoqlar bilan bo'lgan jangida shaxsan ishtirok qilgan va hatto asir olingan. Bundan zo'rg'a qutulib qolgan. 1860-1861 yillarda xonlik qo'shini tarkibida podsho armiyasiga qarshi janglarda ishtirok etgan. Uning bu hatti-harakati rus tarixchisiga yoqmagan. Shuning uchun Pantusovning quyidagi fikrlarini anglash qiyin emas. U shunday yozadi: "Ushbu hech yaxshi so'zga arziyas muallif shavkatli bayroq ostida takbir aytib, Qur'oni Karimdan oyatlar o'qib musulmonlarni jihodga chaqirgan"[3.9].

Mulla Niyoz Muhammad shaxsiy kuzatishlari, og'zaki ma'lumotlarni yig'ish va voqea-hodisalarda bevosita ishtiroki bilan qimmatli ma'lumotlarni to'plaganligini alohida ta'kidlash lozim. O'quvchiga shu xolatni tushuntirib o'tish lozimki, asar Xudoyorxon buyurtmasi bo'yicha yozilgan. Shuning uchun u xon nomiga hamdu sanolar bilan boshlanadi. Buxolat shu davr tarixiy asarlarning deyarli barchasi taalluqli. Zero tarixchi hukmdorning hohish-istagiga to'g'ri kelmaydigan, unga maqtovlar bayon qilmasdan asar yaratishi juda mushkul bo'lgan. Chunki uning hayoti hukmdor istagiga bog'liq bo'lgan edi. O'z asarlarining yaratilishi to'g'risida u shunday

deb yozadi: "Aqli noqis, gunohkor banda qo'rqmasdan, yurak yutib ushbu go'zal mamlakat hukmdorlari to'g'risida ma'lumotlar to'plashga, Norbo'taxon davridan, ya'ni xijriy 1288 yildan bo'yon bo'lib o'tgan voqea, hodisalarni o'rganishga azim qildi. Xozirgi davr Xudoyorxonning baxtli hukmdorligi davridir. O'tkir ko'zlarim ko'rgan, ziyrak quloqlarim bilan eshitgan voqealarni ushbu kitobimdan muhimlashtirib, bayon qildim" [4,9].

"Tarixi Jahonnoma" asarini ahamiyati katta. Asar tojik tilida yozilgan, muallifi Qo'qonlik Jo'naid Mullo Avaz Muhammad bo'lib mayda savdogar oilasidan chiqqan. Mulla Avaz Muhammad saroy tarixchisi bo'lmagan va o'z asarini o'zining hohishicha 15 yil mobaynida yozgan. Kitob ikki jilddan iborat bo'lib, ikkinchi jildi biz uchun qimmatlidir. Unda XV asr oxiridan Zahiriddin Muhammad Bobur davridan boshlab toki 1867-68 yillargacha bo'lgan davrdagi voqealar bayon qilingan. Biroq XV-XXVIII asr oralig'idagi voqealar juda qisqa va sxemalashtirilgan tarzda bayon qilingan. Qo'qon xonligining ichki va tashqi siyosatiga oid batafsil ma'lumotlar Olimxon davridan XIX asr boshlaridan boshlab bayon qilingan. Muallif o'zigacha bo'lgan davr voqealarini bayon qilishda shu paytgacha yaratilgan ko'plab kitoblar ma'lumotlaridan foydalangan. Ayniqsa, "Muntaxab-ut-tavorix" hamda "Tarixi Shohruhiy"dan ko'p foydalangan. Muallif yozishicha Qo'qonning ikki hukmdori davridagi voqealarga o'zi guvoh bo'lgan. Ko'pgina voqealarning guvohi ko'p bevosita ishtirokchisi bo'lgani holda Avaz Muhammad ularni ancha o'bektiv tarzda bayon qilgan. Chunki u Muhammad Xakimxon to'ra va mulla Niyoz Muhammadlardan farqli ravishda saroy tarixchisi bo'lmagan.

Qo'qon xonligi tarixini hamda Fag'ona vodiysining rus mustamlakasiga aylantirilgan so'nggi u dastlabki yillardagi voqealarni o'rganishda Mulla Mirzo Olim Toshkandiyning "Ansob us salotiy tavorix ul xavoqiy" ("Geneologiya Sultanov istoriya xanov") asari alohida o'rin egallaydi.

Mirzo Olim Qo'qon xonligini Sheralixon, Mallaxon, Xudoyorxon boshqargan davrda hamda chorizmning O'rta Osiyoda dastlabki yillarda yashagan. Uch kitobidagi qimmatli ma'lumotlar aynan shu yillardagi voqealarga bag'ishlangan. Muallif aftidan xon saroyida kutubxonachi vazifasida ishlagan. Bu haqda shunday xulosa qilsak bo'ladiki, uning kitobining so'ngida podsho amaldorlarining undan ellikta kitobini xon kutubxonasidan keltirib berishni so'raganligi guvohlik beradi. Lekin u faqatgina 10 ta kitobnigina polsho amaldorlariga topshirgan. Asarning boshqa joyda muallif ma'lum muddat sulton (xon) mirzosi-kotibi bo'lib ishlaganligini ma'lum qiladi.

Mirzo Olim Farg'ona vodiysining podsho qo'shinlari tomonidan istilo qilishi arafasida qirg'izlarga asir tushib qolgan. Ruslar hujumidan so'ng, asillikdan ozod bo'lgach, Nasriddinxon xizmatiga kirgan. Nasriddinxon xizmatiga kirgan

nasriddinxon hukmronligi tugatilgach, Mirzo Olim Qo'ng'irotda jo'nab ketadi va imom bo'lib ishlagan. Shu yerda o'z nihoyasiga yetgazgan.

Mirzo Olim o'z asarini adabiy o'zbek tilida yozilgan kitobda voqealar Qo'qon xonligi tarixiga bag'ishlangan ko'pgina asarlar qatori minglar xonadoni voqealar bayoni Farg'onada hukmronlik qilgan temuriylar davridan boshlab bayon qilingan. Rossiyaning Qo'qonni bosib olishi bilan kitob nihoyasiga yetgan.

Tarixiy manbalar tahlili yana shuni ko'rsatadiki, Qo'qonning ayrim hukmdorlari tomonidan aholi ishsizligi masalasiga ham jiddiy e'tibor qaratilgan. «Tarixi Shohruxiy» asarida ko'rsatilishicha, Olimxon hukmronligining dastlabki davrlaridan boshlab mamlakatda biror hunarni ham egallay olmagan ishsizlar, devona va gadolarni ish bilan ta'minlash siyosati olib borgan. Bu fikrni "Tarixi Turkiston" asarida ham ta'kidlangan.

Ushbu asarning o'ziga xos jihati shundaki unda Bobur, Mirxond, Avaz Muhammad attor kitoblaridan, "Nasabnomai o'zbeki", "Tarixi Rahimiy", kabi asarlardan ko'chirmalar keltirilgan. Mirzo Olim kitobida bir qator noaniqliklarga yo'l qo'yilishi bilan birga, unda boshqa kitoblarda yozilmagan ma'lumotlar ham keltirilgan. Misol uchun unda 1717-1718 yillarda Samarqanddagi ocharchilik tufayli bir qancha qabilalarning qo'qonga ko'chib kelishi tarixi boshqa kitoblarda keltirilmaydi. Bu kitobda yana shunday qiziq bir ma'lumotlar keltirilgan, unda Sheralixon davrida viloyatlarga xon choparlari yorliqlar bilan yuborilgan. Unga ko'ra aholidan qurol-yarog' yig'ish, xarbiy solitqlar, ulov puli, miltiq puli o'ndirilishi nazarda tutilgan. Shuningdek, Qo'qon atrofida qal'a devorlari qurishning, unga aholini safarbar qilish, ushbu qurilishni amalga oshirish uslublari va vositalar to'g'risida ham Mirzo Olim qiziqarli ma'lumotlar keltirgan. 1851-1852 yillardagi Isobek va Abdullabek boshchiligidagi qo'zg'olon to'g'risida ham boshqa birorta manbada gapirilmaydi. Mirzo olim esa ushbu voqeani ham bayon etgan.

Xonlikdagi ijtimoiy-iqtisodiy hamda harbiy-siyosiy hayot to'g'risida ko'plab ma'lumotlar ham kitobda keltirilgan. Unda xudoyorxon va Mallaxon o'rtasidagi dushmanlik xonlikdagi harbiy tayyorgarlik masalalari ham dalillar asosida yoritilgan.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Н.Набиев Из истории Кокандского Ханства. Ташкент 1973 г. Стр. 6
2. Н.Набиев Из истории Кокандского Ханства. Ташкент 1973 г Стр. 8
3. Р.Н.Набиев Из истории Кокандского Ханства. .Ташкент 1973 г Стр. 9
4. Р.Н.Набиев Из истории Кокандского Ханства. .Ташкент 1973 г Стр. 9
5. Yusupov Axrorjon Qurbonovich Философия и право YANGI O'ZBEKISTONDA JAMIYATNI DEMOKRATLASHTIRISH VA YOSHLARNING

IJTIMOIIY FAOLLLIGINI OSHIRISH MUAMMO VA YECHIMLARI 2023 98-1016.

6. Юсупов, Ахроржон, and Баходирхан Кодирхан угли Нуманов. "Кипчаки ферганской долины и их участие в этническом процесса." Ученый XXI века 6-2 (2016).

7. Kurbanovich, Yusupov Akhrorjon, and Hasanov Mukhtarjon Kakharamonjon o'g'li. "DIPLOMATIC AND TRADE-ECONOMIC RELATIONS BETWEEN THE KOKON KHAN AND RUSSIA." Multidisciplinary Journal of Science and Technology 3.5 (2023): 183-187.

8. Kurbanovich, Yusupov Akhrorjon. "Theoretical and methodological approaches to increase the political culture of citizens." Journal of Advanced Zoology 44.S2 (2023): 3916-3925.

9. Qurbonovich, Yusupov Axrorjon. "YOSHLAR IJTIMOIIY-SIYOSIIY FAOLLLIGINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI." IJTIMOIIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI 3.11 (2023): 42-46.

10. AQ Yusupov, BS Kodirov YANGI O 'ZBEKISTONDA JAMIYATNI DEMOKRATLASHTIRISH VA FUQAROLARNING IJTIMOIIY FAOLLLIGINI OSHIRISH MUAMMO VA YECHIMLARI Oriental Art and Culture 4 (5), 33-36